






YALPI HUDUDIY MAHSULOT




Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yilning yanvar-sentabrida Jizzax viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda - YaHM) hajmi joriy narxlarda 12 057,8 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019-yilning yanvar-sentabri bilan taqqoslaganda 2,4 % ga o'sdi. YaHM deflyator indeksi 2019-yil yanvar-sentabridagi narxlarga nisbatan 111,4 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaHMning shakllanishida Jizzax viloyatining qo'shgan hissasi 3,0 % ga yetdi.



Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari


	Mlrd. so'm		2019-yil yanvar- sentabriga nisbatan, % da
	2019-yil yanvar- sentabr	2020-yil yanvar- sentabr	
I. YaHM	10 561,3	12 057,8	102,4
<i>shu jumladan:</i>			
 Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	10 057,6	11 850,8	102,4
 Mahsulotlarga sof soliqlar	503,7	207,0	102,4
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	10 057,6	11 850,8	102,4
 Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	5 418,0	6 529,0	104,2
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	1 897,5	2 255,6	103,6
 sanoat	1 027,7	1 276,8	103,7
 qurilish	869,8	978,8	103,5
Xizmatlar	2 742,1	3 066,2	98,3

		Mlrd. so‘m		2019-yil yanvar-sentabr nisbatan, % da
		2019-yil yanvar-sentabr	2020-yil yanvar-sentabr	
	savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	690,2	697,3	90,3
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	400,5	468,3	109,4
	boshqa xizmat tarmoqlari	1 651,4	1 900,6	98,9

Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 8 658,5 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 0,3 % ga ko‘paydi.



Yanvar- sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YaHM hajmi va o‘shish sur‘atlari











Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qoʻshilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 98,3 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 1,7 % ini tashkil etdi.

Qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligining YaHMning tarmoqlar boʻyicha tarkibidagi ulushi 1,2 % punktga koʻpaydi va hisobot yilida 55,1 % ni tashkil etdi. Sanoat tarmogʻining ulushi 10,8 % dan iborat boʻlib, 0,6 % punktga koʻpaydi, qurilishniki esa 0,3 % punktga pasaydi va 8,3 % ga yetdi. Xizmatlar sohasining YaHM tarkibidagi ulushi 25,8 % ni tashkil qildi va oʻtgan yilning mos davri bilan taqqoslanganda 1,5 % punktga kamaydi.




Yanvar- sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha YaHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

		2019- yil	2020- yil
	I. YaHM, jami	100,0	100,0
	<i>shu jumladan:</i>		
	Tarmoqlarning yalpi qoʻshilgan qiymati	95,2	98,3
	Mahsulotlarga sof soliqlar	4,8	1,7
	II. Tarmoqlarning yalpi qoʻshilgan qiymati	100,0	100,0
	Qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligi	53,9	55,1
	Sanoat (qurilishni qoʻshgan holda)	18,8	19,1
	sanoat	10,2	10,8
	qurilish	8,6	8,3
	Xizmatlar	27,3	25,8
	savdo, yashash va ovqatlanish boʻyicha xizmatlar	6,9	5,9


		2019- yil	2020- yil
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	4,0	4,0
	boshqa xizmat tarmoqlari	16,4	15,9



Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)



- Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati
- Mahsulotlarga sof soliqlar





- Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati
- Mahsulotlarga sof soliqlar

YaHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida - 104,2 % (YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi - 55,1 %), sanoatda - 103,7 % (10,8 %) va qurilishda 103,5 % (8,3 %) ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasida hajmning kamayishi kuzatildi va 98,3 % (YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi - 25,8 %) ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 90,3 % (5,9 %) kamayish, tashish va saqlash, axborot va aloqa 109,4 % (4,0 %) o'sish hamda boshqa xizmat tarmoqlarida 98,9 % (15,9%) kamayish holatlari kuzatildi.




Yanvar- sentabr oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutloq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2020-yilning yanvar-sentabrida iqtisodiyotning qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi tarmog'i YaHMning mos ravishda 2,1 f.p. (2019-yilning yanvar-sentabrida - 2,1 f.p.), sanoat 0,4 f.p. (2019-yilning yanvar-sentabrida - 0,4 f.p.), qurilish 0,3 f.p. (2019-yilning yanvar-sentabrida - 3,1 f.p.) ga o'sishiga hissa qo'shdi. Xizmatlar sohasi -0,5 f.p. (2019-yilning yanvar-sentabrida 1,5 f.p. ijobiy hissa qo'shgan) salbiy hissa qo'shdi.



2020-yil yanvar-sentabr oylarida YaHM o'lishida tarmoqlarning hissi



2020-yil yanvar-sentabrda YaHM deflyatori indeksi 2019-yil yanvar-sentabridagi narxlarga nisbatan 111,4 foizni tashkil etdi. YaHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda - 119,8 % va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida - 115,7 % qayd etildi.



Yanvar-sentabr oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)

